



# Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik

2020- yil yanvar-sentabr

(dastlabki ma'lumotlar)

2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi **23,8** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1 000 aholiga **20,8** birlikni tashkil qildi.

2020- yilning yanvar-sentabrida **3 498** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **31,3** foizga kam.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 1 383 ta, sanoatda 753 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 643 ta, yashash va ovqatlanishda 169 ta, qurilishda 165 ta, tashish va saqlashda 81 ta tashkil etilgan.

## 2020- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Savdo  
39,5 %



Sanoat  
21,5 %



Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik  
xo'jaligi



Yashash va  
ovqatlanish bo'yicha  
xizmatlar  
4,8 %



Qurilish  
4,7 %



Tashish va saqlash  
2,3 %

## Yanvar- sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2019- y.	2020- y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	13 531	17 670	4 139
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	5 092	3 498	-1 594
<b>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</b>				
YaHM	%	27,8	23,8	-4,0
Sanoat	%	8,1	6,2	-1,9
Qishloq, o'rmon va baliqchilik	%	98,1	98,1	
Investitsiya	%	18,8	26,9	7,0
Qurilish	%	71,8	78,0	4,9
Savdo	%	87,3	79,4	-6,6
Xizmatlar	%	59,3	61,1	-1,8
Yuk tashish	%	9,9	9,4	-0,5
Yuk aylanmasi	%	45,0	45,6	0,6
Yo'lovchi tashish	%	86,0	87,8	1,8
Yo'lovchi aylanmasi	%	82,2	87,9	5,7
Eksport	%	27,3	13,4	-13,9
Import	%	66,7	33,3	-33,4



### 2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da




2020- yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'pi Navoiy shahrida – 574 ta, Xatirchi tumanida – 543 ta, Qiziltepa tumanida – 483 ta, Karmana tumanida – 457 ta, Navbahor tumanida – 342 ta va Uchquduq tumanida – 294 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Konimex tumanida – 178 ta va Tomdi tumanida – 111 tani tashkil etgan.

### Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	(+;-)
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>5 092</b>	<b>3 498</b>	<b>-1 594</b>
<i>shaharlar:</i>			
Navoiy	982	574	-408
Zarafshon	575	282	-293
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	663	457	-206
Konimex	167	178	11
Qiziltepa	711	483	-228
Navbahor	472	342	-130
Nurota	292	234	-58
Tomdi	107	111	4
Uchquduq	338	294	-44
Xatirchi	785	543	-242



### 2020- yil yanvar-sentabr holatiga kora yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da




2020- yilning yanvar - sentabr oylarida tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulushni Navoiy shahri -16,4 %, Xatirchi tumani - 15,5 %, Qiziltepa tumani - 13,8 %, Karmana tumani - 13,1 %, Navbahor tumani - 9,8 %, Uchquduq tumani - 8,4 %, Zarafshon shahri - 8,0 %, Nurota tumani - 6,7 %. Past ulush Konimex tumani - 5,1 %, Tomdi tumani – 3,2 % ga tegishli.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	(+;- )
Jami	5 092	3 498	-1 594
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	501	643	142
Sanoat	1 069	753	-316
Qurilish	303	165	-138
Savdo	2 271	1 383	-888
Tashish va saqlash	116	81	-35
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	358	169	-189
Axborot va aloqa	62	41	-21
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	40	33	-7
Boshqa faoliyat turlari	372	230	-36

**Ma'lumot uchun:** 2020- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda

	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi (+;-)
Navoiy shahri	982	574	-408
Xatirchi tumani	785	543	-242
Qiziltepa tumani	711	483	-228
Karmana tumani	663	457	-206
Navbahor tumani	472	342	-130
Uchquduq tumani	338	294	-44
Zarafshon shahri	575	282	-293

2020- yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Navoiy shahrida – 574 taga yetdi.




### Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda





## Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga ko'ra\*



2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda) tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Tomdi tumanida 41,5 birlik, Navoiy shahrida 26,7 birlik, Uchquduq tumanida 25,9 birlik, Karmana tumanida 25,4 birlik, Konimex tumanida 23,7 birlik, Navbahor tumanida 20,4 birlik, Qiziltepa tumanida 19,3 birlik, Nurota tumanida 18,3 birlikni tashkil etgan. Zarafshon shahrida 17,1 birlikni va Xatirchi tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 14,7 birlikka to'g'ri keldi.

\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




## 2020- yilning yanvar-sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda)\*



\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



## 2020- yilning yanvar-sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni\* (har 1 000 aholiga, birlikda)




2020 - yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda) tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Tomdi tumanida 41,5 birlik, Navoiy shahrida 26,7 birlik, Uchquduq tumanida 25,9 birlik, Karmana tumanida 25,4 birlik, Konimex tumanida 23,7 birlik, Navbahor tumanida 20,4 birlik, Qiziltepa tumanida 19,3 birlik, Nurota tumanida esa 18,3 birlikni tashkil etdi.

\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



## Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda)




Bundan ko'rinib turibdiki, Tomdi tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Xatirchi tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxonalar soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.

## Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar-sentabr holatiga ko'ra, % da


2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 23,8 % ni tashkil qildi. (2019- yilning yanvar- sentabrida 27,8 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.





### Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



### 2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikni tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>6,2</b>	<b>78,0</b>	<b>59,3</b>	<b>26,9</b>
<i>shaharlar:</i>				
Navoiy	1,5	94,2	32,3	13,1
Zarafshon	82,1	29,0	65,8	38,5
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	16,0	98,4	89,2	64,3
Konimex	25,0	61,9	96,8	29,6
Qiziltepa	42,6	87,2	95,0	57,3
Navbahor	68,0	100,0	97,1	86,0
Nurota	99,4	100,0	96,7	91,0
Tomdi	100,0	100,0	99,4	1,1
Uchquduq	100,0	100,0	98,1	6,3
Xatirchi	98,7	92,2	92,2	90,2

Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

**Sanoatda -**

Tomdi t. (100,0 %),  
Uchquduq t. (100,0 %),  
Nurota t. (99,4 %),  
Xatirchi t. (98,7 %),  
Zarafshon sh. (82,1 %)  
Navbahor t. (68,0 %)


**Qurilishda -**

Navbahor t. (100,0 %),  
Nurota t. (100,0 %),  
Tomdi t. (100,0 %),  
Uchquduq t. (100,0 %),  
Karmana t. (98,4 %)  
Xatirchi t. (92,2 %)

**Xizmatlarda -**


Tomdi t. (99,4 %),  
Uchquduq t. (98,1 %),  
Navbahor t. (97,1 %),  
Nurota t. (96,7 %),  
Konimex t. (96,8 %)  
Xatirchi t. (92,2 %)

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan  
2020- yil yanvar-sentabrda**






## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining, jami eksportdagi ulushi, % da



2020- yil yanvar-sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'ycha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Nurota va Tomdi tumanlarida – 100,0%, Uchquduq tumanida – 99,4 %, Konimex tumanida – 98,4 %, Zarafshon shahrida – 97,9 %, Navbahor tumanida – 62,9 %, Xatirchi tumanida – 49,1 %, Karmana tumanida – 31,4 %, Qiziltepa tumanida – 29,7 % ni, eng past ko'rsatkich Navoiy shahrida – 1,0 % ni tashkil etdi.




### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, % da



2020- yil yanvar-sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Konimex, Nurota, va Xatirchi tumanlarida – 100,0 %, Tomdi tumanida – 99,8 %, Zarafshon shahrida – 97,3 %, Uchquduq tumanida – 87,4 %, Navbahor tumanida – 58,9 %, Qiziltepa tumanida – 53,1 %, Karmana tumanida – 41,1 %. Eng past ko'rsatkich Navoiy shahrida - 8, 6 % ni tashkil etdi.



## 2020- yilning yanvar-sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) sohasida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Karmana tumanida (775,0 mlrd. so'm), Navoiy shahrida (593,9 mlrd. so'm), Xatirchi tumanida (387,8 mlrd. so'm), Qiziltepa tumanida (341,6 mlrd. so'm) va Navbahor tumanida (251,2 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Tomdi tumanida (30,1 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.





**2020- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da**




Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Uchquduq va Tomdi tumanlarida - 100,0 %, Nurota tumani - 99,4 %, Xatirchi tumani - 98,7 %, Zarafshon shahrida - 82,1 %, Navbahor tumani - 68,0%, Qiziltepa tumani - 42,6 %, Konimex tumanida - 25,0 %, Karmana tumani - 16,0 % ni tashkil etdi.

Navoiy shahrida - 1,5 % kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.



## 2020- yilning yanvar-sentabrda tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati




Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Navoiy shahri – 987,9 mlrd. so'm (2019- yilning yanvar – sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 78,0%), Karmana tumani - 755,3 mlrd. so'm (97,8%), Qiziltepa tumani - 536,1 mlrd. so'm (100,3%) va Xatirchi tumani 500,9 mlrd so'm (100,2%) hissasiga to'g'ri keladi.





## 2020- yilning yanvar-sentabrda tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Navoiy shahrida - 670,6 mlrd. so'm (2019- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan o'sish sur'ati (108,5%) Karmana tumanida - 392,2 mlrd. so'm (103,7%) Qiziltepa tumanida - 390,2 mlrd. so'm (100,8%) Xatirchi tumanida - 282,3 mlrd. so'm (105,0%) Navbahor tumanida - 225,3 mlrd. so'm (100,0%) hamda Zarafshon shahrida - 218,6 mlrd. so'm (234,2%) qayd etildi.





## 2020- yilning yanvar-sentabrda tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Navoiy shahri - 684,8 mlrd. so'm (2019- yilning yanvar – sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 101,9%), Karmana tumani - 450,7 mlrd. so'm (109,9%), Qiziltepa tumani - 288,3 mlrd. so'm (101,7%), Zarafshon shahri - 273,4 mlrd. so'm (90,3%) hissasiga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **785** ta respondentlar ishtirok etdi.

**2020- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi\* , % da**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,4 % (66 ta.), sanoatda – 14,1 % (111 ta), qurilishda – 9,6% (75 ta), savdoda – 39,0 % (306 ta), xizmatlar sohasida – 28,9 % (227 ta) ni tashkil etdi.


\* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.



**2020- yil III chorak bo‘yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo‘lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda**



**2020- yil III chorak bo‘yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo‘lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, % da**




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020- yilning III choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qoniqarli iqtisodiy vaziyat savdoda 12,4 punktga, xizmatlar sohasida 11,2 punktga, qurilish korxonalarida 4,5 punktga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 4,4 punktga oshdi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning III choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 12,3 punktga, qurilish korxonalarida 9,9 punktga, savdoda 9,4 punktga, xizmatlar sohasi 8,6 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



### Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019- 2020- yillarda III chorakdagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020 - yilning III choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalarida xizmatlar korxonalarida 5,3 punktga, savdo korxonalarida 3,8 punktga ulushi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'paygan. Sanoat korxonalarida 3,2 punktga, qurilish korxonalarida 2,6 punktga va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 2,5 punktga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, sanoat sohasida 4,0 punktga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 2,5 punktga yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi. Xizmatlar sohasida 3,0 punktga, savdo sohasida 2,3 punktga, qurilish korxonalarida 1,4 punktga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 2,3 punktga, savdo sohasida 1,5 punktga kamaygan.




**Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarining 2019 – 2020-yillarda III chorakdagi iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi,% da**






2020- yilning III choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 125 ta respondentlar qatnashgan. Shundan savdo – 55 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 44,0%), sanoat korxonalari – 25 ta (20,0%), xizmatlar – 20 ta (16,0%), va qishloq, o'rmon va baliqchilik ho'jaligi – 19 ta (15,2%), qurilish – 6 ta (4,8%).

**2020- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da**






2020- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da






Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2020- yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 42,9 punktga, xizmatlar sohasida 38,3 punktga, savdo sohasida 20,0 punktga, qurilish sohasida 8,3 punktga, pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 30,8 punktga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 29,5 punktga, qurilish sohasida 16,7 punktga, savdo sohasida 3,6 punktga o'sishi kuzatildi.

Joriy yilning III choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qurilish sohasida 8,4 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, sanoat sohasida, savdo sohasida, xizmatlar sohasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'paygan.

**2019- 2020- yillar III chorakdagi yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuv natijalariga kora, 2020 - yilning III choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida esa 26,3 punktga, xizmatlar sohasida 20,8 punktga, savdoda 20,0 punktga, qurilishda 16,7 punktga kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 20,8 punktga, savdo sohasida 16,4 punktga, sanoat sohasida 1,3 punktga o'sishi kuzatildi.



**2019- 2020- yil III choragida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash,% da**



Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

Tel. (79) 223-57-61